

## MA'NAVIY CHEGARA

*Yakkabog' tuman "Barkamol avlod" bolalar maktabi  
"Hunarmandchilik va qo'l mehnati" uslubchisi*

**Jumag'ulova Malohat**

*Ona tili va adabiyot o'qituvchisi*

**Bektosheva Gulhayo**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada insonni ma'naviy olamini boyitish va rivojlantirish yo'llari xususida qisqacha tavsif berilgan va shu asosida xulosalar chiqarilgan.

**Kalit so'zlar.** Tarbiya, ta'lim jarayoni, oila, maktab, kitob mutolaasi, mahalla, ma'naviy meros.

### KIRISH.

Biz shiddat bilan rivojlanib borayotgan **Texnika** asrida yashar ekanmiz, bugun **Ma'naviy hayotimiz** qanday holatda ekanligi har birimizni qiziqtirmasdan qolmaydi, albatta. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi **Ma'naviyatdir**. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi-bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi- ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli **Ma'naviyat**. Bugun bolalarimizni maktab, ota-oni yoki institut emas, aksariyat holda qo'lidagi telefon tarbiyalamoqda. Mobil telefon endi oddiy aloqa vositasi emas, ko'pincha yot mafkurani tarqatadigan qurolga aylanmoqda. Ma'naviyatimizga mutlaqo begona bo'lgan zararli g'oyalar chegarani buzmasdan, bildirmasdan xonadonimizga jamiyatimizga kirib boryapti”.

**TAJРИBA VA SINOVLAR.** Odamzod nima uchun kaftdek hovlisiga gul ekadi? Undan ko'ra sholg'om eksa, qozoniga tushadi-ku!.

Odamzod nima uchun bulbul chax-chaxini eshitganda, entikib ketadi? Undan ko'ra bulbulni sho'rvaga solib pishirsa, nafsi qondiradi-ku!

Odamzod nima uchun osmonda charaqlab yotgan yulduzlarni ko'rib, ko'ngli zavqqa to'ladi? Yulduzlar uning yonidagi tillalar emas-ku!

Odamzod nima uchun kitob o'qiyotib, suyukli qahramoni o'lib qolsa yig'laydi? Uni yozuvchi “ichidan to'qib chiqarganini” biladi-ku!

Odamzod nima uchun bolasining boshida alla aytadi? Go'dak alla eshitmasa uxlamaydimi?

Odamzod nima uchun nevarasini yetaklab necha zamon avval o'tib ketgan bobosining qabrini ziyirat qiladi? Marhum ularni ko'rmaydi-ku!

Gap shundaki, Odamzodni hayvonotdan ajratib turadigan chegara bor. Bu chegaraning nomi **Ma’naviyat** deb ataladi.

**Beshak biling, bu dunyo borchha eldin o’taro,  
Ishonmag’il molinga, bir kun qo’ldin ketaro.  
Oto-ono, qarindosh, qayon ketti fikr qil,  
To’rt oyog’lig’ cho’bin ot, bir kun sanga yetaro!**

( Ahmad Yassaviy)

Ushbu fikrlarning zamirida buyuk ijodkorimiz qanchalik olam-olam ma’no aks ettirgan bo’lsa, ba’zi odamlar kishining ma’naviyatiga qarab emas, uning mansabi, boyligi va foydasi tegishiga qarab hurmat qilishadi, Bu chin insoniylik emas, balki insoniylik chegarasini buzishdir. Nimalarni oltin qimmati bilan o’lchab bo’lmaydi: ota-onaning duosini, mehrini, ularning yuzidagi nurni, yana chin do’stni, yorning vafosini, farzandning kulgusini. Bugun yoshlارимиз ongida **INSONNING HAYOTI** nihoyat qadrli va aziz ekanligini, umr o’tkinchi, kiprik qoqib o’tguncha, ba’zan kapalakning umri ham uzoq ekanligini his qilib yashashi lozimligini biz hayot tajribasida sinalayotgan insonlar o’z hayotimiz misolida o’rnak bo’lishimiz lozim! Inson farog’atda yashamoq uchun sidqidildan mehnat qilishi, bilim va ma’rifat egallashi, ezgulik yo’lida tinmay kurashishi va eng muhimi, insoniy-ma’naviy fazilatlar-odob, go’zal axloqda kamolotga erishishi, kamtarinlik sharafiga tuyassar bo’lishi ham farz, ham qarzdir! Zero, ushbu fikrlar tasdig’ini buyuk mutasavvuf tariqat sohibi **Ahmad Yassaviy hazratlari ham o’zining “Hikmatlar” asarida:**

**“Bitta Nafsnинг ishini qirqa shayton qilolmas”-deya alohida ta’kidlab o’tganlar.**

Ma’nan, ruhan, axloqan kamol topgan inson, nafsning quliga aylanib qolmaydi, ta’magirlilik qilmaydi, yeb ichishni, boylik to’plashni hayotning mazmuni, yashashdan maqsad deb tushunmaydi.Bunday inson olam sir-asrorlaridan xabardor bo’ladi, o’zi va o’zgalarni hurmat qiladi,qadrlaydi,o’zligini anglab yetadi,milliy tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlarini yuksak darajada e’zozlaydi,ular bilan faxrlanadi.Ruhiy-ma’naviy boylik insonni behad go’zallashtiradi va ayni paytda uni yomon xislatlardan qutqaradi.,noto’g’ri yo’ldan qaytarib to’g’ri yo’lga boshlaydi,adolat uchun kurashishiga,xalq yo’lida kamarbasata bo’lishiga da’vat etadi.Inson vujudi, amaliy faoliyati,fe’l-atvorida ruhiy-ma’naviy tomonlar keying surib tashlanib,bema;ni hislar va nafs lazzatiga berishi g’oliblik qilsa, unday inson nafs tuzog’iga ilingan,nafsi esa uning eng xatarli dushmani,g’animiga aylangan bo’ladi.

**XULOSA.** Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, bugungi zamonamizda inson **Ma’naviy barkamol** bo’lishi uchun turmush tajribalarini boshidan o’tkazmog’i, minglab yillar mobaynida jamiyat a’zolari tomonidan yig’ilgan odob me’yorlarini o’zlashtirmog’i zarur. So’zim so’nggida Ahmad Yassaviy bobomizning **“Hikmatlar”**и bilan tugatishni joiz deb bildim!

Dunyo uchun g'am yema,  
Haqdin o'zgadin dema.  
Kishi molini yema, sirot uzra tutaro,  
Ahli ayol qarindosh, hech kim bo'lmaydir yo'ldosh,  
Mardona bo'l, g'arib bosh, umring yeldek o'taro!

(Ahmad Yassaviy)

Hayot deb atalmish ne'matning mazmuni ham Ma'naviyat deb atalgan chegarani buzib o'tganimizdagina, bizni hayvonlar safiga o'z qo'limiz va ongimiz bilan o'tganligimizni yana bir karra isbotlaydi!

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Ahmad Yassaviy.Ibrohim Haqqul.-T: G'afur G'ulom nashriyoti, 2001-yil
- 2.Al-Buxoriy.Hadislar,Al-jome' as-sahih.-T "Qomuslar" bosh tahririyati,1991
- 3.N.Komilov. Tasavvuf.-T: "Yozuvchi", 1996-y
- 4.www.ziyo.net.